

# Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)


2018 yil yanvar-mart

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-mart oylarida 148,6 mln.AQSh dollarini, shu jumladan eksport 85,7 mln.AQSh dollarini va import 62,9 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi 22,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63,9 foizga, paxta tolasi 98,7 foizga, Kimyoviy mahsulotlar 6,4 foizga o'sishiga olib keldi.

2018 yil yanvar-mart oylarida viloyatda jismoniy shahslar tomonidan 12,5 Ming.AQSh dollarlik eksport operatsiyalari hamda 268,6 Ming.AQSh dollarlik import operatsiyalari amalga oshirildi.


## Eksport tarkibi, foizda



# Tashqi savdo

Import tarkibining umumiy hajmidan 61,5 foizni mashina va asbob-uskunalar va 13,3 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

## Import tarkibi, foizda



## Xizmatlar eksporti

*Eksport tarkibining umumiy hajmidan 2,4 foizni xizmatlar tashkil qiladi, jami xizmatlar eksporti hajmining 20,8 foizni transport, 3,7 foizni safarlar, 42,5 foizini qurilish, 18,6 foizini boshqa amaliy xizmatlar va 14,4 foizni moliyaviy xizmatlar tashkil qiladi.*



# Tashqi savdo

2018 yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi 22,8 mln.AQSh dollari tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan –59,7 mln.AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan 22,9 mln.AQSh dollari tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi malumotlarda tavsiflanadi:

	mln. AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Eksport</b>	<b>85,7</b>	<b>172,7</b>	<b>100,0</b>
paxta tolasi	39,2	198,7	45,8
oziq-ovqat mahsulotlari	7,5	163,9	8,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	15,7	106,4	18,1
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,6	27,9	0,8
Mashina va dastgohlar	0,1	0,0	0,1
xizmatlar	2,0	39,9	2,4
boshqalar	20,6	6,4 m	24,0
<b>Import</b>	<b>62,9</b>	<b>88,3</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	2,2	150,9	3,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	8,3	130,7	13,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,3	78,2	0,4
qora va rangli metallar	5,9	175,2	9,5
mashina va asbob-uskunalar	38,7	69,2	61,5
xizmatlar	2,6	127,9	4,1
boshqalar	4,9	2,8 m	7,8


# Tashqi savdo

2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlarning ulushi, foizda

## Eksportda




## Importda




2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida Uzoq xorij mamlakatlarning ulushi, foizda

## Eksportda



## Importda



# Tashqi savdo


Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport xajmi 3,3 mln.AQSh dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlar Qozog`iston (umumiy hajmdan 57,9 foiz), Rossiya (20,1 foiz), Turkiya (6,7 foiz), Iroq (8,0 foiz) va Afg'oniston (5,7 foiz) Xitoy (4,9 foiz) hisoblanadi.



**Eksport tarkibining umumiy hajmdan 3,8 foizni meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash tashkil qiladi.**

**Yirik hamkor davlatlar bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlashning eksportdagi katta ulushi ega davlatlar, foizda**



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Nashr uchun mas'ul:  
Ya. Xolto'raev  
(0371) 230-83-90

